



International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING HUQUQIY ASOSLARI

Abdixalilova Pokiza Umidjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti “Davlat boshqaruvi huquqi” yunalishi magistri

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat sohasini muhofaza qilishda bojxona organlari faoliyatining huquqiy asosini tashkil etuvchi me‘yoriy huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati haqida ma‘lumotlar yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** eksport-import, davlat, fuqarolik, bojxona, bojxona chegarasi, bojxona to‘lovlari, Bojxona kodeksi, iqtisodiy manfaat.*

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi munosabatlarning rivojlanishi bozor munosabatlariga o‘tish, davlatda fuqarolik jamiyatini shakllantirish, demokratik munosabatlarni rivojlantirish, shuningdek inson, fuqarolarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa huquqlari va erkinliklarini samarali ta‘minlashning muhim tarkibiy qismidir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, davlat va jamiyat hayotini tartibga soladigan hamda yuridik va jismoniy shaxslarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish va kafolatlashga qaratilgan huquqiy me‘yorlarga rioya qilinishini ta‘minlash vazifasi davlatga, xususan, uning ixtisoslashgan organlari va mansabdor shaxslari zimmasiga yuklatilgan¹.

Bojxona organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyati iqtisodiy xavfsizlikni qo‘riqlash, muhofaza qilish va O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy suverenitetiga, bojxona hududining yaxlitligiga, iqtisodiy manfaatlar, inson hayoti va sog‘lig‘i, hayvonot va o‘simlik dunyosiga, atrof-muhit muhofazasiga, bajarilishini nazorat qilish bojxona organlariga yuklatilgan bojxona

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>.

sohasidagi va boshqa qonunlarga rioya etilishiga, kontrabanda va boshqa ma'muriy huquqbuzarliklarga qarshi kurashga yo'naltirilgan².

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasini muhofaza qilishda bojxona organlari faoliyatining huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qaror va farmoyishlari, Bojxona kodeksi, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari, davlat boshqaruvi organlarining qonunlari va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlari tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 146-moddasida O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha tezkor-qidiruv, tergov va boshqa maxsus vazifalarni mustaqil ravishda bajaruvchi xususiy kooperativ tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ularning bo'linmalarini tuzish hamda ularning faoliyat ko'rsatishi ta'qiqlanadi³.

Bilamizki, O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni va transport vositalarini olib o'tish, bojxona to'lovlarini undirish, bojxona rasmiylashtiruv, bojxona nazoratini amalga oshirish, shuningdek bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish hollarining oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo'yish tartibini belgilash bilan bog'liq munosabatlari **Bojxona kodeksi** bilan tartibga solinadi. Bojxona to'g'risidagi qonunchilik Bojxona kodeksidan va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iborat. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining bojxona to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llanilishi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktabrdagi O'RQ 502-son "**Davlat bojxona xizmati to'g'risida**"gi Qonunining 6-moddasida "Bojxona organlari huquqni muhofaza qiluvchi organlardir" deyilgan hamda bojxona organlariga O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar bo'yicha boshqarmalari, "Toshkent-AERO" ixtisoslashtirilgan bojxona kompleksi, bojxona postlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining Bojxona instituti, shuningdek Milliy kinologiya markazi kirishi belgilab qo'yilgan⁴.

Mazkur qonunda ko'rsatilgan bojxona organlarining o'z faoliyatidagi asosiy yo'nalishlari, huquqlari va majburiyatlari huquqni muhofaza qilish sohasidagi vakolat doirasini aniqlab beradi.

Ushbu qonunning 3-moddasida **bojxona organlarining asosiy vazifalari** quyidagilardan: jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlarini himoya qilish;

² O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktyabr "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi O'RQ-502-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/4000640>.

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>

⁴ O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktyabr "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi O'RQ-502-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/4000640>

o‘z vakolati doirasida O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va uning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash;

bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini amalga oshirish;

bojxona to‘lovlarini undirish;

bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, qonunchilik buzilishlarining, shu jumladan kontrabandaning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo‘yish;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda o‘z vakolatlari doirasida ishtirok etish.

Tashqi savdo, ko‘p hollarda davlatning tashqi siyosiy maqsadlariga xizmat qilgani tufayli, tashqi iqtisodiy faoliyatning davlat tomonidan boshqarilishi hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-mayda yangi tahrirdagi **“Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risidagi”gi** qonuni mamlakatimizda ushbu faoliyat rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratdi⁵.

Ushbu qonunning 17-moddasida tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

tashqi iqtisodiy faoliyatning qonunchilik negizini shakllantirish va takomillashtirish;

valyuta bilan tartibga solish;

soliq bilan tartibga solish;

tarif va notarif tartibga solish;

O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlariga rioya etilishi uchun himoya, kompensatsiya va dempingga qarshi choralarni qo‘llash;

tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilash, shu jumladan, miqdoriy cheklovlar o‘rnatish hamda tovarlarning ayrim turlari eksport va import qilinishi ustidan davlat monopoliyasini o‘rnatish;

eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda talab qilinadigan hujjatlarning to‘liq ro‘yxatini belgilash.

Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar. Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida sodir etilgan huquqbuzarliklar MJtK va Jinoyat kodekslari bilan javobgarlikka tortiladilar. **MJtKda** TIF sohasi bilan bog‘liq huquqbuzarliklar 227¹⁹ - 227²⁵ – moddalar, shuningdek, 170, 171¹, 186¹, 219¹ va boshqa moddalar bilan javobgarlikka tortiladi.

⁵O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-maydagi 77-II-son “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-67345>.

Jinoyat kodeksining XII bob “Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar” bobida TIF sohasidagi jinoyatlar keltirilgan. Ushbu jinoyatlar jinoyat kodeksining 182-moddasida, shuningdek, 175, 177-178, 184, 223, 243 va boshqa moddalar asosida javobgarlikka tortiladilar.

TIF bilan bog‘liq jinoyatlar ashyolari, jinoyat qurollari, boshqa predmet va mol-mulkni olib qo‘yish, saqlash va boshqacha tarzda tasarruf etish JPK, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010-yil 29-dekabr kuni **2174-son** bilan ro‘yxatga olingan qarorga muvofiq tasdiqlangan — “Surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi davomida ashyoviy dalillar, moddiy qimmatliklar va boshqa mol-mulkni olib qo‘yish (qabul qilish), hisobga olish, saqlash, berish, sotish, qaytarish, yo‘q qilib tashlash tartibi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnomasi⁶, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 15-iyuldagi **200-son qarori** bilan tasdiqlangan - “Davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulkni olib qo‘yish, sotish yoki yo‘q qilib tashlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom asosida amalga oshiriladi⁷. Yuqorida qayd etilgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq, bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzishga oid ishlar yuzasidan **bojxona xodimlari quyidagilarni olib qo‘yishga haqli:**

- bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish jinoyati ashyolari;
- ashyoviy dalil sifatida ahamiyatga ega bo‘lgan, muayyan xususiyatlari, belgilari, izlari mavjud narsa, hujjat va boshqa yozuvlar;
- ashyoviy dalil bo‘lishi mumkin bo‘lgan milliy va chet el valyutasi hamda boshqa qimmatliklar;
- muomaladan chiqarilgan yoki muomalasi cheklangan narsalar agarda egasida ularni sotib olish, saqlash, foydalanish uchun tegishli ruxsatnomasi bo‘lmagan hollarda.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan TIF sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish maqsadida “*O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi huquqbuzarliklar bo‘yicha ish yuritish tartibi to‘g‘risidagi Uslubiy qo‘llanma*” ishlab chiqilgan bo‘lib, unda TIF sohasidagi huquqbuzarliklar davlat bojxona xizmati organlari tomonidan, bojxona nazorati va rasmiylashtiruv jarayonida, olib borilgan monitoring va tahlillar natijasida, boshqa idora va tashkilotlar, shuningdek chet el davlatlarining vakolatli idoralari bilan o‘zaro axborot almashish yordamida hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida aniqlanadi deb belgilab qo‘yilgan.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan normativ-huquqiy hujjatlar bugungi kunda TIF

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010-yil 29-dekabrda “Surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi davomida ashyoviy dalillar, moddiy qimmatliklar va boshqa mol-mulkni olib qo‘yish (qabul qilish), hisobga olish, saqlash, berish, sotish, qaytarish, yo‘q qilib tashlash tartibi to‘g‘risidagi Yo‘riqnomani tasdiqlash haqidagi” 2174-son qarori <https://lex.uz/ru/docs/-1724291>

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 15-iyuldagi “Davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulkni olib qo‘yish, sotish yoki yo‘q qilib tashlash tartibi takomillashtirish to‘g‘risida” 200-son qarori <https://lex.uz/ru/docs/-1498826>

sohasini tartibga solishda bojxona organlari amalga oshiradigan harakatlarining huquqiy asosi hisoblanadi. Shuningdek, ushbu sohada sodir etilayotgan jinoyatlarni fosh etishda bojxona organlarining vakolatlari ham ushbu normativ-hujjatlar bilan belgilab qo'yilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>.
2. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktyabr "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi O'RQ-502-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/4000640>.
3. O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-maydagi 77-II-son "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-67345>.
4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010-yil 29-dekabrda "Surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi davomida ashyoviy dalillar, moddiy qimmatliklar va boshqa molmulkni olib qo'yish (qabul qilish), hisobga olish, saqlash, berish, sotish, qaytarish, yo'q qilib tashlash tartibi to'g'risidagi Yo'riqnomani tasdiqlash haqidagi" 2174-son qarori <https://lex.uz/ru/docs/-1724291>
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 15-iyuldagi "Davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni olib qo'yish, sotish yoki yo'q qilib tashlash tartibi takomillashtirish to'g'risida" 200-son qarori <https://lex.uz/ru/docs/-1498826>